

YANGI O'ZBEKISTONDAGI OLIY TA'LIM MUAMMOLARI VA ULARNI IJOBIY HAL ETISH YO'LLARI

*Khalikov Jo'raboy Abduraim o'gli
Abduqaxarov Abdulaziz Abdurashid o'gli
Toshkent davlat transport unversiteti
Aviatsiya transport muhandisligi fakulteti
Havodagi harakatni boshqarish guruhi 3-bosqish talabalari*

Anotatsiya: Ushbu maqoloda yangi O'zbekistondagi Oliy ta'limgagi muammolarni tahlil qilish va yechim topishdagi taklif va mulohazalar bayon qilingan. Oliy ta'limgagi kamchiliklar hamda talabalarmi qiynab kelayotgan katta va kichik qiyinchiliklar yoritilganligi va unga yechim topishga harakat qilinadi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekistonda Oliy ta'lim, Moodle-kredit, Talabalar, Ta'lim-tarbiya,

KIRISH

O'zbekistonda olib borilayotgan oliy ta'lim tizimidagi islohotlarning huquqiy bazasi yildan - yilga mustahkamlanib bormoqda. Turli sohalar uchun mutaxassislar tayyorlash bo'yicha oliy o'quv yurtlarining ish sifatini baholashga turli konseptual va amaliy yondashuvlar qo'llanilayotgani beziz emas. Ular orasida oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashda samarali va umumiy yondashuvlarni alohida qayd etish mumkin. «Zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzlusiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak»¹. Bu borada mamlakatimizda jamiyat va oliy ta'lim modernizatsiyasi, mamlakatni demokratisyalashtirish, yetuk mutaxassislarga bo'lgan bo'shliqni to'ldirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda butun dunyoda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ishlar tobora jadallahib bormoqda. Negaki, jamiyat rivoji va istiqboli ko'p jihatdan kadrlarga bog'liq ekan, albatta bunda ta'lim asosiy rol o'ynashini e'tiborga olish lozimligini anglashga intilish tendensiyasi kuchaydi. Shu jihatdan olib qaralganda ta'lim sifati va natijadorligiga erishish muhim hisoblanadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning falsafiy mohiyatini anglash bo'yicha turli xil yondashuvlar keyingi o'n yilliklarda faollashayotganiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, kognitiv tahlil etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ko'p uchraydi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan oliy ta'lim tizimi borasidagi islohotlar pirovard natijada oliy ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu esa o'z navbatida fuqarolik jamiyatini shakllantirishning

¹ O'zbekiston Pespublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi:
<https://uza.uz/posts/05-01-2020>.

yuksak talablari va e'tirof etilgan namunalarga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va modernizatsiya jarayonlarini chuqurlashtirishda ilg'or zamonaviy texnologiyalar, innovatsion ta'lim va tarbiya jarayonlarini tadqiq etishni taqazo etmoqda. Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini sifat bosqichiga ko'tarish borasida so'nggi uch yillik ishida bir qancha huquqiy-meyoriy hujjatlar ishlab chiqilib, amaliyotga faol joriy etib kelinmoqda. Ana shunday muhim strategik hujjatlardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 8 oktabrida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida belgilangan ustuvor vazifalarning falsafiy mohiyati va mazmuniga e'tibor bersak, bunda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqishga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish asosiy maqsad sifatida belgilanganligiga guvoh bo'lamic. Farmon maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni izchillik asosida amalga oshirib borish nazarda tutilgan. Ya'ni: "oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish; xalqaro tajribalardan kelib shiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqishma-bosqish o'tish; oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqishga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish" kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda bizni qiynab kelayotgan eng katta muammolardan biri sifatida Oliy ta'lim bo'lib kelmoqda. Barchaga ayon bu muammolarni yechish uchun yaqin yillardan beri Oliy ta'lim vazirligi qattiq harakat qilmoqda. Ammo aksiga olib qancha harakat qilishiga qaramay Oliy ta'limdagи muammolar kamayish o'rniga ortib borayotganga o'xshaydi. Qisqacha qilib aytganda bugungi kunda oliy ta'limga kirib kelayotgan yangiliklar to'la to'kis qo'llanish o'rniga talaygina muammolar bilan kirib kelayotganini ko'rishimiz mumkin. Hammaga ayon hozirgi kunda deyarli barcha oliy ta'lim universitetlarda moodle-kredit dasturi ishga tushgan ochig'ini aytganda bu chet el dasturi bizga kirib kelgansha O'zbekonalashib ketdi. Oliy ta'limdagilar faqatgina o'ziga foydali tarafini olishdi talabalarga esa foydali tarafini chetlab o'tishdi. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin:

Ertalabdan katta umidlar bilan o'qish tomon shoshib-pishib kelasiz ammo birinchi paradan formangiz yoqligi uchun darsdan chetlashtirasiz buni tushunsa bo'ladi, lekin tuni bilan oraliq nazoratlarga tayyorlanib kelsangiz u sizni soqolingiz borligi uchun oraliq nazoratdan chetlashtirishsa bundan alamliysi bo'lmasa kerak. Bugungi kunda siz talaba bolsangiz sizda forma davomat umumiy qilib aytganda o'sha mashxur so'z "**Universitet ichki tartib qoidalari**"ga amal qilsangiz universitetda sizdan yaxshi talaba bo'lmaydi. Chet el davlatlariga qaraydigan bo'lsak yo'q ularga qarash uchun bizga ancha uzoqlig qiladi keling yaxshisi uzoqga bormaymiz o'sha mashhur chet davlatlarning bizdagi universitetlariga qaraydigan bo'lsak ularda 180° boshqacha. Eng qizig'i ular ham Moodle-kredit dasturidan foydalanishadi va biz ham. Bularni qo'ya turamiz. Agarda hamma muammolar ko'tariladigan bo'lsa bizning yurtda Oliy ta'lim yoqdek korinb qoladi, tangani ikkinchi tomoni bor deyishadi biz shu tanganing ikkinchi tomoniga qarashga qaror qildik ming afsuslar bolsinki bu yerda ham muammolar botqog'iga botib qoldik.

Bugungi kunda bir biridan kulgiliroq muammolar talayginga. Hozirgi kunda hech kimga sir emas axborot texnologiyalar kundan kunga avj olib deyarli hamma narsalar elektronlashib bormoqda juda ko'plab ishlar online bajarilib turilgan vaqtida avtobuslarda hamon oylik to'lov kartalari o'tishi uchun talabalik guvohnomasi so'rash davom etmoqda. Ammo 21- asr "Axborot texnalogiyalar asri "da yashab turibmiz lekin hali hamon qogozbozlikdan voz kecha olamayapmiz, vaholanki hozirda talabalik guvohnomasi avtobusdan boshqa joy uchun kerak emas. Eng kulgili holat avtobus hodimlarini takidlashicha ularga elektron hujjat o'tmas emish.

Avvalroq ta'kidlaganimizdek bizda muamolar talaygina albatta ish bor joyda kamchilik ham bo'ladi. Biz bu muamolarni hal etish ushun ta'limda katta o'zgarishlarni amalgalashishga oshirayapmiz. Bunga misol qilib yuqorida keltirib o'tgan moodle-kredit tizimini olsak bo'ladi lekin bu tizim to'la to'kis ishlaganda edi, anchagina yutuqlarga erishgan bo'lar edik. Chet el ta'lim dasturiga qaraydigan bo'lsak talabalar xohlagan fanini, xohlagan o'qituvchisini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Agarda talabada ingiliz tili fanidan ielts 8 darajasi bo'lsa u talaba bir smestr moboynida ingiliz tili fanida 80 daqiqa vaqtini ketkazishi shart bo'lmasa kerak. Yana bir masalaga oydinlik kiritib olishimiz kerak keljakda unversitetdan diplomli talaba chiqishi kerakmi yoki yetuk mutaxasis!

Bu muammolarga qanday chora ko'rish kerak? Talabalarni kim eshitadi? Ahir davlatimiz kelajagi va poydevori bo'lgan talabalarni qo'llab quvatlamasak qanday qilib keljakda ulardan baland marralarni kutishimiz mumkin? O'z yurtida horlangan odam o'z yurti uchun mufoqqiyatga erishishi haqiqatdan ancha yiroq. Viloyatlarimizdagi oliy o'quv maskanida talim oladigan talabalarimizni chetga surib turaylik. Poytahtda oqiman deb katta niyyatlar bilan tayyorlanib o'qishga kirib harakat qilaman degan talabani esa uy-joy masalasi yani "Kvartira" muammosi qarshilab oladi. Bundan ko'rinish turibdiki 1- kursga kelgan talaba o'qishini chetga surib ijara u yidirishdan boshlaydi. Ijara narhlari esa oddiy odam bir oyda ishlab topadigan oylik maoshiga

nisbatan juda ham qimmat. Universitet yotoqhonalar esa keraklikcha talabalar uchun yotoqhonha ajratib bermaydi. Va joyi kelsa yotoqhonadan joy berish uchun yotoqhonha dekanatidagi bazi bir qo'sh-tirnoq ichidagi odamlar qo'shimcha pul talab qilishadi. Lekin nimagadir universitet rahbariyati doimo haq, faqat quruq vadabozlikdan foyda yoq. Shunday ekan bu muammolarga iloji boricha tezroq chek qoyish kerak deb o'layman.

Shu o'rinda tepada keltirilgan muammolar uchun yechimlarni sanab o'tsak. Moodle-kredit sistemasi, faqat universitet foydasi uchun emas, balki talabalarni foydasi uchun ham ishlashi kerak. Bunda agarda biz bu ta'lim tizimini to'liqligicha O'zbekistonning barcha oliy yurtlariga qo'llanadigan bo'lsa, bizlarning oliy yurtlarimiz ta'lim ustuvorligi bo'yicha dunyo miqyosida balandroq reytinga chiqa boshlaydi. Bunda nimalarni inobatga olish kerak degan savol yotadi. Birinchi o'rinda Moodle-kredit (**ECTS**) [sistemasida](#) ko'rsatilgandek talabalarga fanlarni tanlash huquqini berish kerak. Chunki talaba o'ziga kelajakda kasb egallash uchun qanday fanlar kerakligini universitet majburiyatlaridan ko'ra yaxshi biladi. Talabani bitta honada majburlab ushlab o'tirish mumkin, lekin uni fikri hayolini majburlab o'ziga yoqmagan fanga qarata olmaymiz. Keyingi masala bu forma masalasi, O'zbekiston hududida necha yuzlab oliy talim maskanlari uzoq yillardan beri faoliyat yurutishadi, balkim talaba yoshlar uchun bilim "forma" dan ko'ra muhumroqligini tushunish vaqt kelmadimikin? Talabalar uchun majburiy **Dress Code** ya'ni majburiy formalarni yoqotish kerak. Undan ko'ra odamni ixtiyoriga qarab qulay va mos kiyim kechak kiygani maqulroq deb o'layman. Chunki bilim bo'lmasa, bizga bu majburiy forma hech qanday yordam bermaydi. Keyingi masala qog'oz bozlikga chek qoyish. Biz XXI- asrda yashaymiz va deyarli ko'p narsalar elektronlashib bormoqda, shunday ekan jamoat transportlarda ya'ni avtobuslarda talabalardan oylik karta orqali yo'l haqqini to'lash uchun talabalik guvohnomasini talab qilishga chek qo'yish kerak. Hammaga ma'lum oylik to'lov kartalarga to'lovini amalga oshirmasa ishlamaydi, ya'ni talabada oylik karta bo'lsa bas, talabalik guvohnomasini ko'rsatishi shart emas, chunki u davlat budjetiga to'lovini amalga oshirgan va unda bir jamoat transportlaridan foydalanishga huquqi bor.

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston oliy ta'lim tizimining ichki menejmenti haqiqatdan ham bo'linib ketgan (buni xalqaro mutaxassislar ham ta'kidlashgan), shu bilan birga menejment jarayonida ishtirok etadigan ko'plab tashkilotlarning majburiyatları takrorlanmoqda. Masalan, Prezident devoni huzurida ta'lim siyosatini ishlab chiqish uchun mas'ul davlat maslahatchisi boshshiligidagi maxsus bo'lim mavjud. Parlamentda ta'lim siyosati ishlab chiqilishini nazorat qiluvshi va uni amalga oshirish natijalarini tahlil qiluvshi maxsus ta'lim qo'mitasi mavjud. Bosh vazirning o'rinosarlaridan biri ta'limni rivojlantirish bilan bog'liq masalalar ushun mas'uldir va Vazirlar Mahkamasida ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy rivojlanish va oliy ta'limni rivojlantirishni nazorat qiluvshi maxsus bo'lim (Ijtimoiy kompleks)

mavjud. Vazirlar Mahkamasi bo‘limga umumiy rahbarlik qiladi va davlat ta’lim standartlarini tasdiqlaydi. Iqtisodiyot va mehnat vazirliklari mehnat bozorini bitiruvshilarni yetarlisha ta’minlab berish ushun javobgardir. Ularning prognozlariga binoan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan universitetlarga qabul kvotalari belgilanadi. Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi universitetlarni boshqaradi va boshqa vazirliklar, masalan, universitetlarni davlat tomonidan moliyalashtirish vazifasi yuklatilgan Moliya vazirligi va oliy ta’lim sohasida ilmiy ishlar bo‘yisha strategik tavsiyalarni berish uchun mas’ul bo‘lgan Fanlar akademiyasi bilan aloqada vositashi bo‘lib xizmat qiladi. Ya’nikim, bu oliy ta’lim tizimida ularning javobgarligini ta’minlash qiyinligidan dalolat beradi.

REFERENCES

- 1.O‘zbekiston Pespublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi: <https://uza.uz/posts/05-01-2020>.
2. М. Н. Ҳасанов, С. У. Бошмонов, & Т. О. Жонибеков (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ИЛМ-ФАНЛАР ТАСНИФИДА АХЛОҚИЙ ВА ДИНИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 608-613.
- 3.Abdurakhmonova, Z. Y. MODERN UZBEKISTAN AND ITS TOURISM POTENTIAL.
- 4.Юулдашева, Д. М., & Абдурахмонаева, З. Ю. СПЕЦИФИКА ОБУЧЕНИЯ ПЕРЕВОДУ НА РУССКИЙ ЯЗЫК ФРАНЦУЗСКИХ ТЕРМИНОВ. *ББК 80я43*, 172.
- 5.Aripov, N., Kamaletdinov, S., Tokhirov, N., & Abduraxmanova, Z. (2022). Simulation Modeling of Train Traffic Based on GIS Technologies. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 16, 73-82.
- 6.Абдурахмонова, З. Ю. (2021). ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТИШНИНГ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИДА САМАРАЛИ ЁНДОШУВ. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1189-1193.
- 7.Абдурахмонова, З. Ю. (2022). ЁШЛАРНИНГ МАЊНАВИЙ ВА МАДАНИЯТИНИ ЮҚСАЛТИРИШНИНГ УСТИВОР ВАЗИФАЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 491-500.
8. Абдурашидова, Нилуфар Абдурашидовна, & Ҳасанов, М. (2022). ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИДА ДИН ВА АХЛОҚНИНГ ЎЗАРО МУТАНОСИБЛИГИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 1226-1235.
9. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). ШАХС ДИНИЙ ДУНЁҚАРАШИННИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ИЛМНИНГ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (7), 35-39.

- 10.Жуманиёз Султонович Раматов, Машкура Инамжанована Рахимова, & Миршод Нўймонович Ҳасанов (2022). МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ИСЛОМИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 1031-1036.
- 11.3. Н. Бобошев, М.Н.Ҳасанов, & Э.А.Нуруллаев. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ПЕДАГОГИКА ФАНИНИНГ АСОСЧИСИ СИФАТИДА JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 4(3), 108–115. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/623>
- 12.Ж. С. Раматов, М. Ҳасанов, & Лочин Азаматович Валиев (2022). АУРОБИНДО ГХОШ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ ФАЛСАФИЙ МЕЪРОСИ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 1161-1169.
13. J. S. Ramatov, M. Hasanov AL-FAROBIY SIYOSIY DAVRAN VA IJTIMOIY-MADANIY AHVOL // Pedagogik fanlarda akademik tadqiqotlar. 2022 yil. 6-son. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/al-farobiy-davridagi-siyosiy-va-izhtimoiy-madaniy-vaziyat> (kirish sanasi: 12.11.2022).
- 14.Jumaniyoz Ramatov, Rozigul Umarova, Rashid Baratov, Mirshod Khasanov, Siroj Sultonov, & Fayzulla Kushakov (2022). PROBLEMS OF INFLUENCE OF ISLAM ON CONSCIOUSNESS TRANSFORMATION. Academic research in educational sciences, 3 (10), 591-597.
- 15.Жўрабоев, Н. Ю., Баратов, Р. Ў., Кушаков, Ф. А., Султанов, С. Ҳ., & Ҳасанов, М. Н. (2022). ХИТОЙ ФАЛСАФАСИНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. World scientific research journal, 9(2), 43-48.
- 16.Раматов, Ж. С., Баратов, Р. Ў., Кушаков, Ф. А., Валиев, Л. А., & Ҳасанов, М. Н. (2022). ЖАМИЯТДА СИЁСИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЙОКСАЛТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. PEDAGOGS jurnali, 19(1), 13-18.
- 17.М.Н.Ҳасанов, А.А.Азимбаев, Ҳалилов Ў., & Каримов Б. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ШАХС МАҶНАВИЙ КАМОЛОТИГА ДОИР ҚАРАШЛАРИ . JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 4(3), 147–153. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/new/article/view/629>
- 18.М.Н.Ҳасанов, А.А.Азимбаев, Ҳалилов Ў., & Каримов Б. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ШАХС МАҶНАВИЙ КАМОЛОТИГА ДОИР ҚАРАШЛАРИ . JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 4(3), 147–153. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/new/article/view/629>